



YUKLAMALARINI TARJIMA QILISHNING SEMIK TAHLIL USULI

Nafisa Abralova¹

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi,

Feruza Jumayeva²

Ilmiy rahbar dots.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p2-41>

ARTICLE INFO

Received: 02nd February 2023

Accepted: 09th February 2023

Online: 10th February 2023

KEY WORDS

Sema, yuklama, particle, yuklamalarning mazmuni va ifoda planlari.

ABSTRACT

O'zbek tilida yordamchi so'zlar, jumladan yuklamalar ham ko'p semali bo'lib, bu semalarning deyarli barchasi ingliz tilida alohida so'zlar bilan ifodalanadi. Ushbu ilmiy maqolada ularni o'rGANish jarayonida gaplarning mazmuniy qurilishidagi semantik farqlanishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga qo'shiganda anglatadigan ma'nolariga ko'ra yuklamaning quyidagi turlari farqlanadi :

- 1) So'roq va taajjub yuklamalari : mi , -chi , -a / -ya
- 2) Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -u/-yu , -da , -ku , ham
- 3) Ayiruv-chegaralov yuklamalari: fagat, -gina
- 4) Aniqlov yuklamasi : xuddi
- 5) Guman yuklamasi: -dir
- 6) Inkor yuklamasi: na..na

So'roq va taajjub yuklamalaridan -mi yuklamasi ingliz tilida ma'lum bir shakl bilan bilan ifodalanmaydi. Gap zamoniga qarab yordamchi fe'lni egadan oldinga o'tkazish orqali so'roq shakl yasaladi.

M.: Have you ever read this book? (Bu kitobni o'qiganmisiz?)

-chi so'roq yuklamasi esa , what about shakli bilan ifodalanadi.

M.: Have you ever read this book? What about this?

(Bu kitobni o'qigansizmi? Bunisini-chi?)

-a /-ya so'roq yuklamalarini ifodalash uchun ingliz tilida tasdiq so'roq gaplardan foydalaniladi.

M.: You are a student. Aren't you?

(Siz talabasiz. Shunday emasmi?)

Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi ham ingliz tilida too , also , both, yet (short answerda) so'zları bilan ifodalanadi.

M.: I will also be a teacher

(Men ham o'qituvchi bo'laman)

-ku kuchaytiruv-ta'kid yuklamasini ifodalash uchun ingliz tilida "do" mustaqil fe'li modal fe'l ma'nosida qo'llaniladi.

M.: I do say (Aytdim-ku)



Faqat, -gina ayiruv-chegegaralov yuklamalari only, just so'zlari bilan ifodalanadi.

M.: He was talking about only that incident

(U faqat o'sha mavzu haqida so'zlayotgan edi)

Aniqlov yuklamasi xuddi so'zi o'rnila the same as shakli ishlataladi.

M.: The son is the same as his father

(O'g'li otasining xuddi o'zi)

-dir gumon yuklamasi o'rnila fe'lidan oldin probably (balki) so'zi qo'llanadi.

M.: He probably came

(U kelgandir)

Na..na inkor yuklamasini ifodalash uchun "neither..nor" birikmasi ishlataladi.

M.: She neither reads, nor writes

(U na o'qimaydi, na yozmaydi)

Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, ingliz tilida o'zbek tilidagi kabi sof yuklamalar yo'q. "Particles" o'zbek tiliga yuklamalar deb tarjima qilinadi, ammo ular o'zbek tilidagi yuklamalarga mos kelmaydi. Shuning uchun o'zbek tilidagi yuklama semalari ingliz tilida boshqa usullar (gap bo'laklari o'rnnini almashtirish, modal fe'llardan foydalanish) asosida amalga oshiriladi.

References:

1. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.
2. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo'ldoshev, D.Muhamedova O'zbek tili pratikumi. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA" 2006. – 304 b.
3. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Qaqnus Mediya. 2019. -136 b.
4. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Ma'ruza matnlari) – Т.: "Qamar-media" nashriyoti, 2020. – 324 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.